

NEMIS TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

Abdisheripova Mahliyo UrDPI
Xorijiy filologiya kafedrası o'qituvchisi
+998975122127
abdisheripovamahliyo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirish va turli xil mashqlardan va usullardan foydalanish yoritilib o'tilgan. Bundan tashqari til o'rganuvchilari o'rtasida muloqot, qobiliyat, tilni egallash, diqqatni jamlay olish qobiliyati, ijodkorlik, yangilik yaratish qobiliyati ham yoritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование навыков владения иностранным языком и использование различных упражнений и методов. Кроме того, изучающие язык охватывают коммуникацию, способности, овладение языком, способность концентрироваться, креативность и способность создавать новые вещи.

Annotation: This article covers the formation of foreign language skills and the use of various exercises and methods. In addition, communication, ability, language acquisition, ability to concentrate, creativity, and the ability to create new things are covered among language learners.

Kalit so'zlar: Chet tili, o'rganish usullari, qobiliyatni oshirish, fonetika, leksika, grammatika, o'rganish metodlari, sprechen, hören, schreiben, lesen.

Ключевые слова: Иностранный язык, методы обучения, развитие навыков, фонетика, словарный запас, грамматика, методы обучения, sprechen, hören, schreiben, lesen.

Keywords: Foreign language, learning methods, skill development, phonetics, vocabulary, grammar, learning methods, sprechen, hören, schreiben, lesen.

Chet tili bu xorijiy mamlakat tili hisoblanadi. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, nemis, fransuz, ispan) tillari va Sharq (arab, turk, urdu, fors, xitoy, hind) tillari o'rganilib kelmoqda. Tillarni o'qitish turlicha kechadi: birinchidan, ona tilida tafakkur shakllanadi, o'zga tillarni o'rganish ulardagi fonetika, leksika va

grammatikaga xos xususiyatlarini his etish bilan bog'liqdir; ikkinchidan, o'rganish tartibi ona tilidan boshlanib, undan keyin ikkinchi til va, nihoyat, chet tilga o'tiladi; uchinchidan, ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Qayd etilgan muhokamadan ayon bo'ladiki, uchala til orasida chet tilni o'rgatish o'rganish muayyan jihatlari bilan keskin farqlanadi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Quyda qanday qilib chet tilida ravon gapirishimiz mumkinligini ko'rib chiqamiz.

‘ Gapirish, nutq faoliyatining turi sifatida, og'zaki fikr bayon etish demakdir. Bundan tashqari Gapirish - bu psixologik va jismoniy jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab faoliyat. Chet tilini o'rgatishda dastavval xatolarga ustida ko'piroq ishlashimiz zarur, sababi o'rganuvchilar gapirish paytida anchagina hayojonlanadilar, buning uchun ularga gapirish paytida (sprechenda) xato gapirmasliklari uchun turli xil mashqlar bilan mustahkamlash zarur. Dastavval mashqlar orqali osondan qiyinga qarab izchila (Schritt für Schritt) borishi zarur. Chunki har qanday faoliyatni o'rgatish paytida mashq markaziy o'rinni egallaydi. Nutq malakalarini o'zlashtirish deganda, kichik hajmli sodda birliklardan (so'z, so'z birikmasi, gapdan) boshlanib, yirik miqyosdagi murakkab matngacha bo'lgan nutq hodisalarini o'z ichiga olgan mashq bajarish jarayoni tushuniladi. Bulaming hammasi oqibat natijada mashqlar majmuyini tashkil etadi. Tayyorlov va nutq mashqlari gapirish ko'nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o'taydi. Odatda, ular o'quv mashqlari nomi bilan yuritiladi. Tayyorlov deganda, gapirishning leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalariga daxldor mashqlar bobida so'z boradi. Ularda til hodisalarining shakliy (formal), ma'naviy (semantik), qo'llanilish (funktional) qiyinchiliklarining oldini olishga, sodir bo'ladigan xatolarni to'g'rilashga harakat qilinadi. Talaffuz mukammal bo'lishi shart emas, lekin tushunarli bo'lishi kerak, shunda muloqotda tushunmovchiliklar bo'lmaydi. b) So'z boyligini shakllantirish 1. O'rganuvchilar ma'lum bir naqsh bo'yicha qisqa og'zaki suhbatlar yaratadigan juftlik ishi. Bunday dialoglar odatda ikki yoki uchta jumladan iborat bo'lib, ular qayta-qayta

takrorlanadi. 2. So'zni eslab qolish tezligiga qaratilgan zanjirli mashqlar, assotsiatsiya o'yinlari, rasm bilan boshqariladigan mashqlar. Bu vaqt bosimi ostida amalga oshiriladigan va so'z boyligini takrorlash uchun juda mos bo'lgan so'z mashqlari (masalan, chamadonni qadoqlash). Lug'at bilan ishlashda og'zaki nutq ustuvor ahamiyatga ega va o'quvchilarga yozma yuz ularni mustahkamlagandan keyingina berilishi kerak. Kontekst ham muhimdir. Barcha so'zlar, jummlar, mnemonika kontekstda etkazilishi kerak. 3. Nutqlardan foydalanish mashqlari: Ushbu mashqlarning maqsadi nutqlarni egallash va mustahkamlashdir. Bu erda asosiy e'tibor formulali iboralarga, masalan, salomlashish, minnatdorchilik va so'rovlar, kechirim so'rash, o'zingizni tanishtirish va h.k.ga qaratiladi. Avvalo, ushbu mashqlar vaziyat va maqsadli guruhga mos ravishda ishlatilishi kerak. Nemis tilini gapirishni rivojlantirish uchun bir nechta samarali usullar va yo'llar mavjud. Nemis tili o'qitish jarayonida gapirish ko'nikmasi talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu ko'nikma, nafaqat tilni to'g'ri va aniq ifodalashni, balki muloqotda erkin qatnashishni ta'minlaydi. Nemis tilini o'rganuvchilar uchun bu ko'nikmani rivojlantirish o'qituvchilar oldida alohida vazifa bo'lib, o'quvchilarni turli usullar orqali ushbu ko'nikmaga qiziqtirish va samarali o'rgatish kerak. Quyida ularning ba'zilar keltirilgan:

- Tanishuv va suhbatlar: Nemis tilida suhbatlashadigan do'stlar yoki hamkorlar bilan muntazam ravishda muloqot qilish, bu sizning gapirish qobiliyatingizni rivojlantirishga yordam beradi va eng muhimi ular bilan turli xil tadbirlarda ishtirok etishdir.

- Kitoblar va maqolalar: Nemis tilida kitoblar o'qish, yangi so'zlarni va iboralarni o'rganishga yordam beradi.

- Podkastlar va videolar: Nemis tilidagi podkastlar va YouTube kanallari orqali tinglash qobiliyatingizni rivojlantirish ko'mak beradi.

- Til kurslari: Professional o'qituvchilar bilan darslar olish, o'rganuvchiga to'g'ri talaffuz va grammatikani o'rganishga yordam beradi.

- Onlayn platformalar: Duolingo, Babbel yoki Rosetta Stone kabi onlayn platformalar orqali ham chet tilini anchagina o'rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulyamov, T. "Nemis tili o'qitish metodikasi." Tashkent: O'qituvchi. 2020y

2. Jamolov, J. "Chet tili o'qitish metodikasi." Tashkent: O'qituvchi. 2012y

3. Kharisova, R. "Interaktiv metodlar orqali til o'rganish." Tashkent: Nafis.

2017y